

## MILLIY IQTISODIYOTDA INNOVATSIYA FAOLLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING JALB ETISH TAZIMINI TAKOMILLASHTRISH

*Ilmiy rahbar: i.f.n, PhD S.M.Dusanov  
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
1-kurs magistri D.B.Mamasoliyeva*

**Annotatsiya.** Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb qilish uchun innovatsiya va yangiliklar muhim ahamiyatga ega. Bu, mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini kuchaytirish, sanoat va xizmat sohasini rivojlantirish, ish o‘rinlarini yaratish va yangi texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy faoliyatning amalga oshirilishi kapital bilan bog‘liq bo‘lib, foyda olish yoki iqtisodiy jtimoiy samaraga erishish maqsadida sarflangan mablag‘ investitsiya sifatida qaraladi.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, innovatsion yangilik, milliy iqtisodiyot, xorijiy korxonalar, xorijiy investorlar, investitsiya,

**Asosiy qism.** Yurtimizda investitsiya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 14-maydagi PF-5717-son Farmoniga muvofiq keltirsak bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi tarmoqlar va hududlarni rivojlantirishning tasdiqlangan konsepsiyalari va dasturlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida uning asosiy ko‘rsatkichlarini har yili aniqlashtirib va yangilab borgan holda uch yillik davrga shakllantirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Investitsiya dasturini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalari va boshqa markazlashtirilmagan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli ro‘yxatini shakllantirish, shuningdek, Investitsiya dasturining amalga oshirilishini umumiy monitoring va nazorat qilish bo‘yicha vakolatli organ etib belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.<sup>1</sup>

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishning xorij tajribasi hamda uni mamlakatimizda tadbiq etish ko‘p imkoniyatlarni yaratadi shu jumladan

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 14-maydagi PF-

zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi yangi innovatsiya ishlarni amalga oshirishidir.

Respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, shuningdek, joylarda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida:

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) qabul qilinsin<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati, iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa sohalarda moddiy ishlab chiqarishga mablag'lar qo'yish maqsadini hamda pul, qimmatli qog'ozlar, yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo'lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va boshqalar kabi boyliklarga mablag'lar qo'yishni o'z ichiga oladi

O'zbekiston Respublikasida "O'zkimyosanoat" AJ kompaniyasi ham investitsiya siyosatini amalga oshiradi. Ushbu kompaniya investitsiya siyosatini ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshiradi:

1. Xorijiy va mahalliy investorlarning sarmoyalarni jalb etish yo'li bilan zamonaviy kimyo ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va mavjud quvvatlarni qayta jihozlash va modernizatsiya qilish.
2. O'zbekiston kimyo korxonalarini xususiylashtirish va davlat mulkidan chiqarish ja-rayonlariga xorijiy investorlarni jalb etish .

Bu investitsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlari O'zbekiston kimyo sanoati rivojlanishining muhim omillari sifatida xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishlar O'zbekiston kimyo sanoatining ishlab chiqarish qudratini oshiradi va bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini ta'minlaydi .

**Xulosa.** Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, investitsiya maslahatchilar bilan hamkorlik qilish juda muhimdir. Bu maslahatchilar, investitsiya loyihalarini tuzish, investitsiya mablag'larini jalb qilish, investitsiya muhitini tahlil qilish va investitsiya loyihalarini boshqarishda yordam beradi hamda investitsiyaga imtiyozlar berish va

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son qaroriga 1-ilova

soliq sohasidagi qo'llanmalarni takomillashtirish zarur. Bu, investitsiyalarni rag'batlantirish, soliq mablag'larini kamaytirish va investitsiya faoliyatini sifatliroq qilish imkonini beradi. va investitsiya markazlarini va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish zarur. Bu markazlar, investitsiya loyihalarini tashkil etish, investitsiya mablag'larini jalb qilish, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiya faoliyatini boshqarishda yordam beradi. Yuqorida sanab o'tilgan barcha farmon va qarorlar milliy iqtisodiyotni yanada keng ko'lamda rivojlantirish va kelajak rivoji uchun sharoit yaratishga qaratilgan va buning natijasi amalda o'z ifodasini topmoqda.

#### Foydalanilgan sayt va maqolalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 14-maydagi PF- 5717-son // <https://www.lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son qaroriga 1-ilova. // <https://www.lex.uz>
3. Abdullayev Sh.Z. Pul kredit va banklar. T.: "Moliy", 2000
4. Toshov O. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish. Monografiya. T.: Akademiya nashri. 2012
5. <https://t.me/lexuzofficial>